



QURILISH KIMYOVIY MAHSULOTLARI GURUHI

BETEK FIBRIOUS AQUASET®

MAHSULOT TAVSIFI

BETEK FIBRIOUS AQUASET® — polipropilen mikrotola qo'shilgan, foydalanishga tayyor, oq rangli, suyuq membrana ko'rinishidagi gidroizolyatsion material bo'lib, gidroizolyatsiya uchun xavfli deb hisoblangan hududlar uchun ishlab chiqilgan.

QO'LLANILISH SOHALARI

BETEK FIBRIOUS AQUASET® ayniqsa quyidagi joylarda xavfsiz qo'llaniladi:

- yoriq paydo bo'lishi mumkin bo'lgan choklar va bo'limlarda
- beton, suvoq, g'isht, chinni, galvanizatsiyalangan metall va yog'och yuzalarda
- tomlarda, poydevor va yerto'la devorlarida
- filtr va mo'ri pastki qismlarida

Gidroizolyatsiya talab qilinadigan yuzalar uchun mo'ljallangan.

XUSUSIYATLARI

- Harorat ta'siri yoki cho'kish sababli eski yuzalarda paydo bo'lgan yoriqlar ustiga gidroizolyatsiya materiallarini oson qo'llash imkonini beradi
- Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan makroyoriqlar tufayli gidroizolyatsiya tizimining shikastlanishini oldini oladi
- Tarkibidagi polipropilen mikrotola tufayli mexanik zarbalarga nisbatan yuqori chidamlilikni ta'minlaydi
- Sovuq va issiq harorat farqlaridan ta'sirlanmaydi
(-20°C dan +80°C gacha)
- Faqat xuddi shunday elastiklikka ega suv asosli bo'yoqlar bilan bo'yaladi
- Tarkibidagi biosidlar sabab bakteriyalar rivojlanishini oldini oladi
- Mineral asosli yuzalar, yog'och va anodlanmagan metall yuzalarga mukammal yopishadi

TEXNIK KO'RSATKICHLAR

- Yopishish mustahkamligi: **12 kgf/sm²** (24 soatdan keyin)
- Tortilish mustahkamligi: **50 kgf/sm²** (24 soatdan keyin)
- Uzilishdagi cho'zilish: **300%** (DIN 53455)
- Bug' o'tkazuvchanligi: **27,6 g/m²/kun** (23°C, 65% RH)
- Zichlik: **1,3 g/ml**

QO'LLASH

BETEK FIBRIOUS AQUASET® faqat quruq, toza va namliksiz yuzalarga surtiladi.

Yuzani yog', kir, chang va yopishishga xalaqit beruvchi bo'sh qatlamlardan tozalang.

Suv yig'ilib qolmasligi uchun yuzada qiyalik bo'lishi kerak.

Yoriqlar va teshiklar **Stako** ta'mirlash qorishmasi bilan to'ldiriladi.



OOO "COLORLAB"
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chiltog'on ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88



Grunt qatlam sifatida **Aquaset** 100% suv bilan suyultirilib surtiladi, so'ng yuzaning holatiga qarab **ikki qatlam BETEK FIBRIOUS AQUASET®** qo'llanadi.

⚠ **BETEK FIBRIOUS AQUASET®** suyultirilmasdan ishlatilmaydi.

Qo'llash **kamida ikki qatlam** bo'lishi shart.

Qatlamlar orasidagi kutish vaqti **24 soatdan oshmasligi** kerak.

Ikkinchi qatlam birinchisiga **90° burchak ostida** surtiladi.

Chok joylarda material tasma shaklida qo'llanadi.

Qo'llash harorati: **+5°C dan +35°C gacha**, quruq ob-havoda.

Yomg'ir, qor va sovuqda qo'llashdan saqlaning.

Surtishdan keyin yuzalar **48 soat** davomida salbiy ob-havodan himoyalanaadi.

Tashqi ta'sirlarga bardoshlilikni ta'minlash uchun barcha yuzalar tsement qorishmasi, keramika yoki shunga o'xshash qoplamalar bilan himoyalinishi lozim.

Asboblari suv bilan tozalanadi.

OGOHLANTIRISH

BETEK FIBRIOUS AQUASET® majburiy ravishda tsement qorishmasi, keramika yoki shunga o'xshash qoplamalar bilan yopilishi kerak.

Asboblari suv bilan yuviladi.

Tekis taglikli rezina oyoq kiyimda ishlash tavsiya etiladi.

Sun'iy yo'ldosh antennalari, quyosh panellari va suv idishlari uchun alohida tayanch platforma qurish tavsiya etiladi.

⚠ **BETEK FIBRIOUS AQUASET®** ni suyultirmasdan ishlatmang.

Grunt qatlami uchun mahsulot **100% suv** bilan suyultiriladi.

QURISH VAQTI (20°C va 65% nisbiy namlikda)

- Birlamchi qurish: **12 soat**
- Ikkinchi qatlam: **24 soatdan keyin**
- To'liq qurish: **48 soat**

SARF

Yuzaning tuzilishiga qarab o'rtacha sarf:

- Vertikal yuzalar: **0,75–1,0 kg/m²** (bir qatlam)
- Gorizontal yuzalar: **1,0–1,5 kg/m²** (bir qatlam)

Aniq sarf ish yakunida aniqlanadi.

SAQLASH

Asl qadoqda, quruq va salqin joyda, namlikdan, muzlashdan va quyosh nurlaridan himoyalangan holda **1 yil** saqlanadi.



OOO "COLORLAB"

Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chilito'g'on ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88



XAVF

Xi — tirnash xususiyati beruvchi modda

XAVF BAYONOTLARI

- **H317:** Allergik teri reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin

EHTIYOT CHORALARI

- **P101:** Tibbiy yordam kerak bo'lsa, yorliqni yoningizda saqlang
- **P102:** Bolalardan yiroqda saqlang
- **P103:** Ishlatishdan oldin yorliqni o'qing
- **P261:** Chang, bug' va aerezollarni nafasga olmang
- **P280:** Himoya qo'lqoplari va ko'z/yuza himoyasidan foydalaning
- **P321:** Maxsus davolash (yorliqda ko'rsatilgan)
- **P363:** Iflos kiyimlarni qayta kiyishdan oldin yuving
- **P333+P313:** Teri qizarishi yoki toshma bo'lsa, shifokorga murojaat qiling
- **P501:** Mahsulot va idishni amaldagi qoidalarga muvofiq yo'q qiling

Ushbu texnik hujjat normal sharoitdagi laboratoriya ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Yuqorida keltirilmagan ma'lumotlar bo'yicha texnik mutaxassislarga murojaat qiling.

Ma'lumot yetishmasligi sababli yuzaga kelgan nosozliklar uchun ishlab chiqaruvchi javobgar emas.

Kompaniya ushbu ma'lumotlarni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Agar kerak bo'lsa, sog'liq, xavfsizlik va mahsulot bilan ishlash bo'yicha batafsil ma'lumotlarni MSDS hujjatlarida topishingiz mumkin.

Ishlab chiqaruvchi: Betek A.Ş., TS EN ISO 9001 va TS EN ISO 14001 sertifikatlariga ega.



ООО "COLORLAB"

Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chiltog'on ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88